



BUDJET TASHKILOTLARIDA TUZILADIGAN MOLIVAVIY HISOBOTLARNING AXBOROT IMKONIYATLARINI OCHIB BERISH YO'LLARINI TAKOMILLASHTIRISH.

Norqulova Qutlug`nigor Oloviddinovna

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi muallif budjet tashkilotlarida tuziladigan moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini ochib berish yo'llarini takomillashtirishda xorij tajribasi va dasturiy majmualardan foydalanish, kadrlar salohiyatini oshirishni qo'llashni yoritib bergan.*

Kalit so'zlar: *Moliyaviy hisobotlar, budjet tashkiloti, UzASBO DM.*

Аннотация: *В данной дипломной работе автор осветил использование зарубежного опыта и программных комплексов в совершенствовании путей раскрытия информационного потенциала финансовой отчетности, формируемой в бюджетных организациях, применение наращивания кадрового потенциала.*

Ключевые слова: *финансовая отчетность, бюджетная организация, UzASBO DM.*

Budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini ochib berish va ularni takomillashtirish, tashkilotning moliyaviy holatini aniq va shaffof tarzda ko'rsatish uchun muhimdir. Bu boradagi takomillashtirishlar tashkilotning samaradorligini oshirish va jamiyat uchun aniqroq axborot taqdim etish imkonini beradi. Budjet tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari davlat moliyaviy nazoratining asosi bo'lib, ular orqali tashkilotlarning moliyaviy holati, daromadlari va xarajatlari haqida keng va aniq axborot olinadi. Biroq, amaliyotda bu hisobotlarning axborot imkoniyatlari yetarlicha samarali ochib berilmayotgani ko'zga tashlanadi. Shuning uchun budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini to'liq ochib berish va ularni tahlil qilish jarayonlarini takomillashtirish zarur.

Moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini oshirish — bu hisobotlarda mavjud ma'lumotlarni kengroq, chuqurroq va aniqroq tahlil qilib, foydalanuvchilarga samarali qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni yetkazish demakdir.

Moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va taqdim etishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish lozim. Avtomatlashtirilgan moliyaviy hisob tizimlari, real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish imkoniyatlarini taqdim etuvchi platformalar budjet tashkilotlarining axborot imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Hisobotlarning mazmunini kengaytirish, zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish, vizualizatsiyadan foydalanish, foydalanuvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish va kadrlar malakasini oshirish kabi choralar bu yo'lda asosiy vositalardir. Shu bilan birga, hisobotlarni ochiq va shaffof qilib taqdim etish davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi hamda budjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatining ishonchligini oshiradi.

1-jadval

Budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini takomillashtirish⁵

Muammo	Takomillashtirish yo'li	Kutilayotgan natija	Amalga oshirish vositalari
UzASBO 2 DMda communal xizmat xarajatlarini hisobini olib borilmasligi	Elektron tizimda communal xizmatlar xarajatlarining aniq hisobini olib boorish maqsadida communal xizmatlarning haqiqiy xarajatlarini bajarilgan ishlar dalolatnomasi bilan emas, haqiqiy xarajatlarni UzASBO 2 DM da natura shaklida hisoblashni olib borishni integratsiya qilish	-Moliyaviy hisobotlarda aniqlik va oshkoralik -Budjet mablag'larini Oqilona ishlatish	-Xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisobot (2-son shakl), -Rivojlantirish jamg'armasi bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot, -To'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lar harakati to'g'risidagi hisobotlarni aniq yuritilishiga olib keladi.
Kadrlar salohiyatini oshirish	Har 6 oyda malaka oshirish kurslari	Tezkorlik, xatoliklarning kamayishi	Yangilangan bilimlar va tajriba
Moliyaviy ko'rsatkichlar	Trend va solishtirma	Qaror qabul qilishda	Analitik dasturlar, Excel

⁵Ushbujadvalmualliftomonidantayyorlandi.



o'zaro solishtirilmaydi	tahlillarni qo'llash	aniqlik puxtalik	va modellari
Axborot o'z vaqtida yetkazilmaydi	Hisobot topshirish muddatlarini nazorat qilish va electron bildirishnomalar	Vaqtida tahlil va qarorlar chiqarish	Avtomatik ogohlantirish tizimlari

FOYDALANILGAN ADABIYOILAR:

1. Ostonaqulov M. Budget tashkilotlarida yangi buxgalteriya hisobi. Qo'llanma. – T.: Yangi asr avlodi, 2011.
2. MehmonovS.U., KuliboyevA.Sh. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari hisobi:O'quv qo'llanma, –T.:«Iqtisod-moliya» 2018.